

ILM FAN XABARNOMASI

Ilmiy elektron jurnali

TILLARNI O'QITISHDA O'QUVCHILARDA XXI ASR KO'NIKMALARINI
RIVOJLANTIRISH: ILG'OR METOD ,USUL VA VOSITALAR.

Toshmurodova Mahsuma Muhiddin qizi

Toshkent amaliy fanlar universiteti

"Tarix va filologiya" fakulteti

"O'zbek tili va adabiyoti" yo'naliishi

O'TA2201U02-guruhi talabasi

E-mail:toshmurodovamasuma51@gmail.com

Shaamirova Yulduz Kabiljanovna

Ilmiy rahbar:p.f.n. dotsent

Annotatsiya: Ushbu maqola XXI asrda tillarni o'rgatish bo'yicha erishilgan yutuqlar va bu taraqqiyot bosqichida ilg'or pedagogik usullar , innavatsion texnalogiyalardan va chet tili metodikalaridan foydalanib o'quvchilarga o'rgatish va ularning tilga bo'lgan qiziqishlarini yanada oshirish haqida so'z yuritiladi.

Kalit so'zlar: Metodologiya, chet tili, kommunikativ kompetensiya, tabiiy metod, kommunikativ usul, tadqiqot.

DEVELOPMENT OF STUDENTS' 21ST CENTURY SKILLS IN LANGUAGE TEACHING: ADVANCED METHODS, METHODS AND TOOLS.

Tashmurodova Mahsuma Muhiddin kizi

Tashkent University of Applied Sciences

Faculty of "History and Philology".

"Uzbek language and literature" course

Student of O'TA2201U02 group

E-mail: toshmurodovamasuma51@gmail.com

Shamirova Yulduz Kabilzhanovna

Scientific supervisor: p.f.n. associate professor

Abstract: This article talks about the progress made in teaching languages in the 21st century and at this stage of development, teaching students using advanced pedagogical methods, innovative technologies and foreign language methods and increasing their interest in language.

Key words: Methodology, foreign language, communicative competence, natural method, communicative method, research.

РАЗВИТИЕ НАВЫКОВ СТУДЕНТОВ 21 ВЕКА В ПРЕПОДАВАНИИ ЯЗЫКА: ПЕРЕДОВЫЕ МЕТОДЫ, МЕТОДЫ И ИНСТРУМЕНТЫ.

Ташмуродовой Махсума Мухиддин кизи

Ташкентский университет прикладных наук

Факультет «История и филология».

Курс «Узбекский язык и литература»

Студент группы O'TA2201U02

E-mail:toshmurodovamasuma51@gmail.com

Аннотация: В данной статье говорится о прогрессе, достигнутом в преподавании языков в 21 веке и на данном этапе развития, обучении студентов с использованием передовых педагогических методов, инновационных технологий и методов иностранного языка и повышении их интереса к языку.

Ключевые слова: Методика, иностранный язык, коммуникативная компетентность, естественный метод, коммуникативный метод, исследование.

Hozirgi globallashuv sharoitida nafaqat O'zbekistonda, balki barcha rivojlangan va rivojlanayotgan mamlakatlarda xorijiy tillarni o'rganish va o'rganishning ahamiyati ortib bormoqda va bu jarayon madaniy almashinuv va tushunish uchun muhim vosita bo'lib, xalqlarni yaqinlashtiradigan va hamkorlikni rivojlantiruvchi ko'priq vazifasini o'taydi. Mamlakatimizda til o'rganish va o'qitishga bo'lgan talab ortib bormoqda, bu esa til bilimini oshirish va ilg'or texnologiyalardan foydalanishga qaratilgan yangi innovatsion pedagogikalar, o'qituvchilar va resurslarning paydo bo'lishiga olib kelmoqda. Xorijiy ta'lim tizimlaridan metodologiya va amaliyotlarni o'zlashtirib, biz til o'rganishni yanada qulayroq va samaraliroq qilishimiz mumkin, natijada yangi tillarni o'zlashtirishni osonlashtiramiz.

Metodologiyaning asosiy tamoyillari yondashuv, texnika asosiy tamoyili hisoblanadi. O'qitish metodikasi haqida gap ketganda, asosiy e'tibor qo'llaniladigan ta'lim strategiyalari va usullariga qaratiladi. “**Методологија**” atamasi yunoncha va lotincha “**metodos**” va “**metodus**” so'zlarining birikmasidan kelib chiqqan bo'lib, bizni aniq maqsad sari yetaklovchi yo'llar yoki strategiyalarni bildiradi.

Hozirgi kunda chet tilini o'zlashtirishning ikki xil yondashuvi mavjud: **tabiiy usul** va **sun'iy usul**.

Tabiiy usul ona tilida so'zlashuvchilarning tili va madaniyatiga sho'ng'ish orqali tilni ikkinchi til sifatida o'rganishni o'z ichiga oladi. Masalan, kundalik hayotda rus tilida so'zlashuvchilar bilan shug'ullanish orqali rus tilini samarali o'rganish mumkin, ayniqsa, O'zbekiston kabi rus tilida so'zlashadigan joylarda, xususan, Toshkent kabi aholisining aksariyati rus tilini yaxshi biladigan shaharlarda anchagina oson.

Sun'iy usul o'rganish jarayoni grammatic qoidalarni o'zlashtirishdan boshlanadi va gaplar qurish orqali mustahkamlanadi. Bu usulda o'quvchilar til bilan faqat sinfda gapirish va tinglash orqali tanishadilar. Aksincha, tabiiy o'rganish nisbatan ko'proq maqsadga muvofiq dep hisoblasak xato qilmaymiz.

O'zbekiston respublikasining Prezidenti 2012-yil 10-dekabrda qabul qilingan PK-1875-son qarori xorijiy tillarni o'rganish tizimini takomillashtirishga qaratilgan va shundan buyon boshlang'ich sinflarda o'quvchilarga chet tillarini o'rgatish borasida sezilarli yutuqlarga erishilganligi ko'zga ko'rinarli darajada sezilmoqda¹.

Vatanimizda so'nggi yillarda ingliz tilini o'rganish ommaviyligi oshib borayotganini inkor etib bo'lmaydi. **Ingliz tili ispan va xitoylaridan** keyin dunyoda uchinchi eng keng tarqalgan til sifatida ajralib turadi. Reytingga qaramay, shaxslar orasida ingliz tilini bilishga bo'lgan qiziqish va ishtiyoq ortib borayotgani sezilarli darajada tendentsiya mavjud. Ingliz tilini o'rganish istaginining asosiy sabablaridan biri bu rus va koreys kabi tillardan o'tishning qulayligi va soddaligidadir.

¹<https://cyberleninka.ru/article/n/boshlang-ich-talimda-xorijiy-tillarni-o-qitishda-pedagogik-texnologiyalar/viewer>
Baxromjon Juraboyev.

Ilmiy elektron jurnali

Bugungi ta'lim sharoitida o'qituvchilar birinchi sinfdayoq o'quvchilarga chet tillarini samarali o'rgatish uchun tobora kuchayib borayotgan bosimga duch kelishmoqda. Buning uchun nafaqat tilning o'zi, balki pedagogik va psixologik tamoyillarni ham chuqur anglash talab etiladi. O'qituvchi eng so'nggi texnologiyalar va metodikalardan foydalangan holda kimga, nimani o'rgatayotgani va uni qanday o'rgatayotgani haqida o'yashi kerak. Bu rolda ustunlik qilish uchun chet tili o'qituvchisi o'rgatilayotgan chet tili bilan samarali taqqoslash va solishtirish uchun o'z ona tilini, shu jumladan uning fonetikasi va grammatikasini yaxshi bilishi kerak dep o'ylayman.

Chet tili ta'llimi metodikasi fanni o'qitishda qo'llaniladigan texnika va metodik yondashuvlarni hamda o'qituvchi va o'quvchilarning o'zaro munosabatlarini tahlil qilishni o'z ichiga oladi. U til o'rgatishda qo'llaniladigan turli jarayonlar va usullarni, shuningdek, chet tilini o'rgatishning samarali amaliyotlari ortidagi fanni o'rganishni o'z ichiga oladi.

Germaniyada 1960-yillardan beri ular narsalarni qanday o'rgatish va ularni o'rgatish usullariga e'tibor qaratishgan. Ular talabalarga nimani o'rganishni va qanday o'rgatish kerakligini o'rgatadi. Chet tilini o'rganish nafaqat yangi narsalarni o'rganish, balki turli madaniyatlarni o'rganish va ularni o'z hayotingizda qo'llashdir. Evropada chet tilini o'rganish faqat oliv ta'limdagi ayrimlar uchun, davlat maktablari esa faqat imtiyozli talabalar uchun bir narsa sifatida ko'rildi.

Chet tillar o'qitilishida metodlarni tatbiq etish uzoq davrlardan boshlangan, prinsiplar esa nisbatan yangiroq metodik atamalardir. Tarixan metodlar to'rt guruhga birlashtirilib, ularning nomlariga "*tarjima*", "*tog'ri*", "*qiyosiy*", "*aralash*" deb atash qabul qilingan.

Chet tillarni o'qitish metodikasini o'rganish ikki asrlik boy tarixga ega. Bu vaqt davomida chet tillarini o'rgatishda eng yaxshi yondashuv bo'yicha turli nuqtai nazarlar ilgari surildi. E'tiborli fikrlardan biri olim **L.V. Shcherbaning** fikricha, har qanday fanni o'qitish metodikasi amaliy masala bo'lsa-da, u faqat nazariy emas. Uning ta'kidlashicha, chet tillarini o'qitish metodikasi umumiyligi va xususiy psixologik dalillar va lingvistik tadqiqotlarning kombinatsiyasiga tayanadi dep aytib o'tgan.² SHu o'rinda aytib o'tishimiz kerakki chet tillarini o'rganish hozirgi kunda yuqori tempda ketmoqda bunga asosiy sababchilar pedagoglar hisoblanadi. Mahoratli pedagoglar o'quvchilarning qay darajada tilga bo'lgan qiziqishini aniqlab yangi zamonaviy texnalogiyalar asosida ya'ni yangicha metodlar orqali qiziqishini ya'nada ortiradi. Shu o'rnlarda yangicha metodlardan ko'rib o'tsak

Chet tilini o'rgatishda "**kommunikativ didaktika**" deb nomlangan metoddan foydalinish muhim ahamiyatga ega. Ushbu usul tilni o'rganishda muloqot va o'zaro ta'sirga e'tibor berishni o'z ichiga oladi. Ochiq va moslashuvchan dars o'quvchilarning nimaga muhtojligi yoki o'rganmoqchi bo'lganiga qarab o'zgarishi va moslashishi mumkinligini anglatadi. Bu o'qitish va o'rganishning turli usullarini yaratishga imkon beradi. Mavzu va mazmun hikoya yoki rasmdagi mavzu va ma'lumotlarga o'xshaydi va ular juda muhim. O'quvchilar Bugungi darsimizda tilimizni turli yo'llar bilan qo'llash orqali qiziqarli va yangi narsalarni o'rganish uchun guruhlarda gaplashamiz va ishlaymiz. Siz diqqat bilan qarashingiz kerak. Mashqga jiddiy e'tibor bering va o'z fikringizni bildirishdan oldin uni tushunganingizga ishonch hosil qiling. Ushbu mashq'ulotda biz muloqot qobiliyatimizni yaxshilashga yordam berish uchun kundalik vaziyatlarda bir-birimiz bilan gaplashishni mashq qilamiz. Rasmlar va boshqa ko'rgazmali vositalardan foydalinish narsalarni yaxshiroq tushunishimizga yordam berish uchun juda muhimdir. Kitoblar yoki boshqa

²<https://cyberleninka.ru/article/n/boshlang-ich-talimda-xorijiy-tillarni-o-qitishda-pedagogik-texnologiyalar/viewer>
Baxromjon Juraboyev.

ILM FAN XABARNOMASI

Ilmiy elektron jurnali

matnlardagi so'zlarni o'qish va tushunish bilan birga tildan foydalangan holda gapirish va boshqalarni tinglash muhimdir. Shu tarzda namoyon qilib bera olishlik kerak.

O'qituvchi o'qitishning kommunikativ usullaridan foydalanganda, ular o'quvchilarga turli madaniyatdagi odamlar bilan qanday muloqot qilishni o'rghanishga yordam beradi. Bu shuningdek, talabalarga ushbu tilda so'zlashadigan mamlakat madaniyati haqida ma'lumot olishga yordam beradi. Chet tilini yaxshi o'rghanish uchun o'qituvchilar talabalar uchun qiziqarli va qiziqarli mashg'ulotlarni rejalashtirishlari muhim.

Tabiiy metod- tarix davomida turli shakkarda qo'llanilgan, ikkita asosiy toifa tabiiy va to'g'ridan-to'g'ri usullardir. Tabiiy metod yondashuvi orqali chet tilini o'rghanish ona tilini egallashga o'xshaydi, asosiy maqsad o'qish va yozishni osonlashtirish uchun nutq ko'nikmalarini rivojlantirishdir. Tabiiy metodning assosiy tamoyillaridan biri tilga boy muhit yaratishdir. Vaqt o'tishi bilan bu usulning turli talqinlari va tadbiq etilishi paydo bo'ldi, bu uning tarafdarlari tomonidan qabul qilingan innovatsion yondashuvlardan dalolat beradi.

Qiziqarli mashg'ulotlardan foydalanish o'quvchilarni yaxshiroq o'rghanishga yordam beradi. Chet tili darslarida o'qituvchilar o'quvchilarning o'zлari o'yashlarini, ijodkor bo'lishlarini istashadi. Bizning o'qituvchilarimiz Amerika va Angliyadagi o'qituvchilardan bizga yaxshiroq o'rghanishga yordam berish uchun o'rghanishmoqda. Bunda ko'proq **interfaol metodlardan** foydalanish ta'lim samaradorligini oshiradi. Misol uchun

„Muammoli vaziyat yechimi” (Creative Problem Solving) bu usulni qo'llashda hikoyaning boshlanish qismi o'qib beriladi, yakuni qanday bo'lishi esa o'quvchilar, hukmiga havola qilinadi. Bu o'z navbatida o'quvchilarning mustaqil firkash qobiliyatini rivojlantirishda muhum ahamiyat kasb etadi. O'quvchi bu vaziyatda o'z fikrini yorqin namoyon qila oladi.

“Quvnoq topishmoqlar” (Merry Riddles) o'quvchilarga topishmoqlarni o'rgatishning xorijiy tilni o'qitishda o'rni beqiyos. Topishmoq yodlash orqali o'quvchilarning so'z boyligi oshib boradi, undan tashqari xotirani mustahkamlashda ham topishmoqlarning ahamiyati juda katta. Qiziqarli topishmoqlar yordamida o'quvchilarni darsga bo'lган ishtiyoqini yanada oshirishimiz mumkun.

“Tezkor javob” (Quick answers) o'tilgan dars mavzusinimustahkamlashga ; O'quvchilarning qanchalik darajada tezligini darsga ya'nada e'tiborli bulishiga yordam beradi.Bu esa ayni damda eng interfaol metodlardan hisoblanadi.

“Chigil yozdi” ("Warm-up exercises") o'quvchilarni darsga qiziqtirish uchun sinfda har xil o'yinlardan foydalanish, yoshiga qarab o'yinlar tanlash kichik sinif bolalari uchun asosan qiziqarliroq har xil harakatlardan foydalanish kerak. dars boshlanishidan oldin o'quvchilarni o'tiladigan mavzuga moslashtirishga ham xizmat qiladi.

“Pantomima” (pantomime) bu usul juda qiyin mavzular tushuntirilishi kerak bo'lган darsda yoki yozma mashqlar bajarilib, talabalar charchagan paytda foydalanilsa bo'ladi;

“Hikoya zanjiri” (a chain story) usuli o'quvchilarning og'zaki nutqini o'stirishda yordam beradi; O'quvchilar tomonidan hohlagan tillarida og'izaki nutqini yanada rivijlantirish va muloqotini yaxshilashga kotta yordam beradi .

“Rasmlar so'zlaganda” (When pictures speak) usuli ancha qulay va qiziqarli bo'lib, ingliz tilini yoki boshqa tillarni o'rgatishda, talaba, o'quvchilarning og'zaki nutqini rivojlantirishda yordam beradi, buning uchun mavzuga oid rasmlardan foydalanish lozim.Ular orqali talaba o'quvchilarni Darsga ya'nada qiziqishi ortadi.

Chet tilini o'qitish maqsadini qayta belgilashga ko'p jihatdan **pragmatik lingistik** tadqiqotlar natijalari ta'sir ko'rsatdi. Ushbu tadqiqot sohasi tilga faqat qoidalar va tuzilmalar yig'indisi sifatida emas, balki odamlarning o'zaro ta'siri uchun vosita sifatida qaraydi. Chet tillarni o'qitish sohasida 1970-yillardan boshlab ta'lim maqsadlari haqida qizg'in bahsmunozaralarga sabab bo'lган yangi tamoyillar to'plami paydo bo'ldi. Talabalarni

ILM FAN XABARNOMASI

Ilmiy elektron jurnali

“kommunikativ kompetensiya” deb ataladigan chet tilida samarali muloqot qilishga o‘rgatish muhimligini ta’kidlagan yangi o‘quv dasturlari joriy etildi. 70-yillar davomida turli sinovlarda “kommunikativ usul” muvaffaqiyati til ta’limiga qimmatli yondashuv sifatida o‘z o‘rnini yanada mustahkamladi3.

Tadqiqot metodologiyasi ma’lum bir tadqiqot savoliga javob berish yoki gipotezani tekshirish uchun ma’lumotlarni toplash va tahlil qilish maqsadida tadqiqot o’tkazishning tizimli jarayonini anglatadi. U tadqiqotning samarali va samarali o’tkazilishini ta’minalash uchun bajariladigan qadamlar va tartiblarni belgilashni o‘z ichiga oladi. Bunga tadqiqot loyihasini tanlash, qo’llaniladigan tadqiqot usullari va usullarini aniqlash va ma’lumotlar qanday to’planishi, tahlil qilinishi va talqin qilinishini tavsiflash kiradi. Tadqiqot metodologiyasi, shuningdek, tadqiqot natijalariga ta’sir qilishi mumkin bo’lgan har qanday potentsial cheklashlar yoki noto’g’ri fikrlarni aniqlashni va ushbu muammolarni hal qilish uchun strategiyalarni belgilashni o‘z ichiga oladi. Oxir oqibat, tadqiqot metodologiyasi tadqiqotchilar uchun tadqiqot jarayonini boshqarishda va mazmunli tushunchalarni yaratishda yo’l xaritasi bo’lib xizmat qiladi. Agar texnologiya o’ziga xos tarzda qo’llanilsa, ta’lim samaradorligi sezilarli darajada oshadi. Texnologiyani ijodiy va innovatsion tarzda tatbiq etish orqali darsning ta’siri maksimal darajaga ko’tariladi, bu esa yanada muvaffaqiyatlari o‘quv natijalariga olib kelishini kuzatishimiz mumkun.

Qolaversa, chet tili o‘qituvchisi o‘qitishning samarali usullarini chuqur bilishi ham muhimdir. DTSda belgilangan vazifalarga muvofiq, chet tilini o‘qitish endilikda boshlang‘ich sinflarni o‘z ichiga olgan tayanch “A” bosqichini o‘z ichiga oladi. Shuning uchun 1, 2, 3-sinf o‘quvchilariga ta’lim berish jarayonda chet tili o‘qituvchisi tomonidan ko’rsatiladigan pedagogik mahorat darajasi hal qiluvchi ahamiyatga egahisoblanadi. Boshlang‘ich sinif o‘quvchilarini o‘qitishda albatta pedagogik mahoratga juda katta ahamiyat berish lozim. Bugungi ta’lim sharoitida har bir fan o‘qituvchisi o‘z fanining o‘ziga xos xususiyatlariga moslashtirilgan keng ko‘lamli interfaol usullarni o‘z ichiga oladi.

Bizning maqsadimiz - bizni boshqa o‘quv fanlaridan ajratib turadigan noan'anaviy sinf sharoitlarida turli xil pedagogik texnologiyalardan foydalangan holda, yosh talabalarni tanqidiy fikrlash ko’nikmalari bilan jihozlashdir. Davlat ta’lim standarti har bir sinf uchun ma’lum miqdordagi so‘z va iboralarni o‘rgatish majburiyatini yuklaydi, masalan, 1-sinf uchun 250 ta, 2-sinf uchun 300 ta. Shu sababli, chet tili o‘qituvchilari ushbu mezonlarni muvaffaqiyatlari bajarish uchun innovatsion pedagogik usullarni qo’llashga da’vat etiladi.

Xulosa qilib aytganda, O‘zbekistonda va butun dunyoda an’anaviy ta’lim onlayn ta’lim mashhur bo’lib bormoqda. Bu shuni anglatadiki, talabalar turli xil usullarda, va turli xil tillarda masalan, sinfda va onlaynda o’rganishlari mumkin. Internet yordamida talabalar endi istalgan joydan, hatto uyda ham o‘qishlari va vazifalarni bajarishlari mumkin. Chet tillarini o‘rgatish uchun zamonaviy usullar, metodlar va XXI asr texnologiyalardan foydalangan holdaChet tili darslarini samarali o’tkazish uchun o‘qituvchi kerakli natijaga erishish va pedagogik texnologiyalardan strategik tarzda foydalanishi kerak. Ushbu maqsadga erishish qobiliyati o‘z sohasi bo'yicha yuqori malakaga ega bo’lishi lozim bu esa o‘qituvchining pedagogik tajribasi va mahoratiga bog’liq.

O‘quvchilar uchun rag’batlantiruvchi va qiziqarli ta’lim muhitini yaratish uchun o‘qituvchi uchun ushbu ta’lim texnologiyalarini darsni rejalashtirish va o’tkazishga samarali kiritish juda muhimdir. O’zining pedagogik mahorati va tajribasidan foydalangan holda, o‘qituvchi til o‘rganish jarayonini samarali tarzda osonlashtirishi va o‘quvchilarining akademik o’sishi va rivojlanishini

3[https://library.navoiy-](https://library.navoiy-uni.uz/files/b.to'xliyev,%20m.shamsiyeva,%20t.ziyodova%20.%20o'zbek%20tili%20o'qitish%20metodikasi.pdf)

[uni.uz/files/b.to'xliyev,%20m.shamsiyeva,%20t.ziyodova%20.%20o'zbek%20tili%20o'qitish%20metodikasi.pdf](https://library.navoiy-uni.uz/files/b.to'xliyev,%20m.shamsiyeva,%20t.ziyodova%20.%20o'zbek%20tili%20o'qitish%20metodikasi.pdf)

ILM FAN XABARNOMASI

Ilmiy elektron jurnali

qo'llab-quvvatlashi muhim ahamiyatga ega. Oxir oqibat, chet tili darslarining muvaffaqiyati o'qituvchining pedagogik texnologiyalarni mohirona integratsiyalash va o'quvchilari uchun dinamik va samarali ta'lif tajribasini yaratish uchun o'z tajribasidan foydalanish qobiliyatiga bog'liq deb tushundim.

Chet tili o'rganish ko'p qirrali ta'limot bo'lib bu jarayonda inson murakkab pisixologik o'zgarish yuzaga keladi. Buning natijasida o'z ona tili bilan chet tilini taqqoslash jarayoni yuzaga kelishini ko'rishimiz mumkun bu jarayonda albatta o'quvchilarda ikkilanish holatini yuzaga keltiradi bu vohtda mohir pedagog o'z mahoratini ishga solishi lozim.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI :

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2012 yil 10 dekabrdagi Chet tillarni o'rganish tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida»gi PK-1875-sonli qarori. // «Xalq so'zi» gazetasi, 11.12.2012 y., 240 (5660)-son.
2. Kenjaboyev A. Pedagogik texnologiyalar dars samaradorligining muhim omili. T.: «Navro'z», 2012
- 3; N.Q. Xatamova, M.N. Mirzayeva. "Ingliz tili darslarida qo'llaniladigan interfaol usullar" (uslubiy qo'llanma), Navoiy, 2006.
- 4: Chet tili o'qitish metodikasi, Sh. Alimov, A. Ismoilov, Andijon, 2017
5. Chet tili o'qitish metodikasida zamonaviy pedagogik texnologiyalar „Namangan, „, 2018
6. Jumanazarov LI. Chet tili darslarida pedagogik texnologiyalarni tashkil etish dolzarb muammo. Boshlang'ich ta'lim sifati va samaradorligini oshirish muammolar, yechimlar mavzusidagi Respublika amaliy konferensiyasi. -T.: 2014
7. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2013 yil 8 maydag'i «Uzluksiz ta'lim tizimining chet tillar bo'yicha davlat ta'lim standartini tasdiqlash to'g'risida»gi 124-sonli qarori. // O'zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari to'plami, 2013 y., 20-son, 251-modda.